

## **Transfert narxini belgilashda soliq nazorati va norezidentlarga soliq solish ma'muriyatchiligini tartibga soluvchi ayrim qonunchilik hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida**

*Vazirlar Mahkamasining 111-sonli qarori 10.03.2022-yil*

**Mazkur qaror bilan 5 ta nizam tasdiqlandi.**

**1) “Chet ellik shaxsga daromadlar to'langanligi yuzasidan soliq organini xabardor qilish tartibi to'g'risida”**gi nizam;

Soliq agenti – to'lov manbai tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega bo'lmagan chet ellik shaxsga mazkur daromadlar to'langanligi, lekin O'zbekiston Respublikasi soliq rezidenti mazkur daromadlarga nisbatan haqiqiy huquqqa ega ekanligi to'g'risida soliq organini xabardor qilish tartibi belgilanmoqda.

Ushbu nizam talablari chet ellik shaxslarga to'lanadigan daromadlarga nisbatan tadbiiq etiladi hamda soliq solish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan **amaldagi xalqaro shartnomaga** ega bo'lgan davlat bo'lsa, qo'llaniladi.

**2) “Nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risidagi xabarnoma shaklini to'ldirish tartibi haqida”**gi nizam;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-sonli Qonuni 6-moddasiga muvofiq, Soliq kodeksining **VI bo'limi** “Transfert narxni belgilashda soliq nazorati” **2022-yil 1-yanvardan** e'tiboran amalga kiritiladi.

Soliq kodeksining 182-moddasiga muvofiq, nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar soliq to'lovchi tomonidan o'zi hisobda turgan joydagi soliq organiga nazorat qilinadigan bitimlar tuzilgan kalendar yilga oid yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatidan kechiktirmay yuboriladigan nazorat qilinadigan bitimlar to'g'risidagi xabarnomalarda ko'rsatiladi (*2022 yil uchun 2023-yilning 15-fevralgacha barcha uchun va XK va QKlar uchun 25-martgacha yuboriladi*).

Soliq kodeksining 194-moddasiga asosan, transfert narxni belgilashda soliq nazorati doirasida nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan soliqlarning to'liq hisoblab chiqarilishi va to'lanishini tekshirish Soliq kodeksining 182-moddasiga muvofiq yuborilgan nazorat qilinadigan bitimlar haqidagi bildirishnoma yoki hududiy soliq organining xabarnomasi asosida, shuningdek soliq tekshiruvini o'tkazish natijasida nazorat qilinadigan bitim aniqlangan taqdirda o'tkaziladi.

**Nazorat qilinadigan bitimlar** – o‘zaro aloqador shaxslar o‘rtasidagi tuziladigan bitimlar (bitim bo‘yicha daromad qiymati **5 mlrd so‘mdan** oshsa, bitim tarafi **maxsus soliq rejimini** yoki foyda solig‘i bo‘yicha **soliq imtiyozini qo‘llasa**, **maxsus iqtisodiy zona** ishtirokchisi bo‘lsa, shuningdek **bitim predmeti foydali qazilma** bo‘lib, yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqning **advalor soliq stavkasi** nazarda tutilgan bo‘lsa).

Soliq tekshiruvi natijasida soliq summalari kamaytirilganligi aniqlangan taqdirda, Davlat soliq qo‘mitasi tegishli soliq bazasiga (summasiga) tuzatishlar kiritadi.

**3) “Tashqi savdo shartnomalari bilan bog‘liq narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimni tuzish tartibi haqida”**gi nizom;

Nizomda Davlat soliq qo‘mitasi va yirik soliq to‘lovchilar o‘rtasida, chet davlat vakolatli organi ishtirokida (**ushbu davlat bilan ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish maqsadida shartnoma tuzilgan bo‘lsa**) tashqi savdo bitimiga nisbatan narxlarni belgilash orqali soliqlarni hisoblash nazarda tutilmoqda.

Tashqi savdo shartnomalari bilan bog‘liq narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta‘minlash, ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish va narxlarni belgilashning eng maqbul va samarali tartibini aniqlash maqsadlarda **3 yildan** oshmaydigan muddatga tuzilishi belgilanmoqda.

*Tashqi savdo shartnomalari bilan bog‘liq narxni belgilash to‘g‘risidagi bitimlarni tuzish amaliyoti transfert narxlari qoidalari amal qiladigan barcha mamlakatlarda, xususan Rossiya, Qozog‘iston, Belarusiya, Ukraina kabi MDH davlatlarida mavjud.*

Tashqi savdo shartnomalari bilan bog‘liq narxni belgilash to‘g‘risidagi bitim ixtiyoriy va bepul asosida tuziladi.

**4) “Nazorat qilinadigan bitimlar tuzilganligi munosabati bilan soliq tekshiruvini o‘tkazish muddatini uzaytirish asoslari va tartibini belgilash to‘g‘risida”**gi nizom.

Transfert narxni belgilashda soliq tekshiruvi **6 oydan** oshmagan muddatda o‘tkazilishi va quyidagi hollarda **12 oyga** qadar uzaytirilishi belgilanmoqda:

- tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda holatlar yuzaga kelganda;
- chet el davlat organlaridan axborot olish zaruriyati vujudga kelganda;
- ekspertizalar o‘tkazish zarur bo‘lganda;
- chet tilida taqdim etilgan hujjatlarni tarjima qilish lozim bo‘lganda.

Tekshiruv o‘tkazish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror Davlat soliq qo‘mitasi raisi (*rais o‘rinbosari*) tomonidan qabul qilinishi belgilanmoqda.

**5) “O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan yuridik shaxsning**

## **boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlarini O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi chegirmalariga kiritish tartibi to'g'risida"**gi nizom.

Norezident bo'lgan yuridik shaxsning O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirilgan faoliyatidan olingan daromadlarini soliqqa tortishda, norezident bo'lgan yuridik shaxsning boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlarini *(agar qo'llanilishi O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi qoidalari nazarda tutilgan bo'lsa)* chegirish tartibi belgilanmoqda.

*Norezidentning boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlari deganda ishlab chiqarish jarayoniga mansub bo'lmagan, O'zbekistonda yoki uning hududidan tashqarida qilingan, doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan boshqaruv xodimlarining mehnatiga haq to'lashga oid xarajatlari tushuniladi.*

*Boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlarni **2 ta, to'g'ridan-to'g'ri** kiritish va **mutanosib ravishda** taqsimlash usuli orqali chegirish belgilanmoqda.*

*To'g'ridan-to'g'ri chegirish – doimiy muassasani boshqarish xarajatlari uchun bosh kompaniyaning alohida buxgalteriya hisobi yuritilgan hollarda qo'llaniladi.*

*Mutanosib ravishda chegirish – doimiy muassasa daromadi summasining bosh kompaniya daromadi summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.*